



XO'JALIK SUBYEKTLARIDA PUL OQIMLARI TO'G'RISIDAGI HISOBOT ISHONCHLILIGINI BAHOLASH XUSUSIYATLARI

FEATURES OF ASSESSING THE RELIABILITY OF CASH FLOW STATEMENTS IN BUSINESS ENTITIES

¹Sindarov Sherzod
Egamberdiyevich

²Meliyev Isroil
Ismoilovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.,

²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqola pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligini baholash masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda mazkur mavzuni tadqiq etishning dolzarbligi, mavzuni o'rganilganlik darajasi va mazkur mavzuga oid adabiyotlar sharhi, mavzuni o'rganishda qo'llanilgan tadqiqot metodologiyasi, tadqiqot natijalari va ularning ilmiy muhokamasi, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligini asoslovchi dalillar, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditining asosiy obyektlari, operatsion faoliyatda pul mablag'larining harakati, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditida o'rganiladigan moliyaviy koeffitsientlar, pul mablag'lari auditida o'rganiladigan muomalalar va mazkur hisobot auditida bajariladigan amallar hamda tadqiqot natijasida shakllantirilgan xulosalar bayon etilgan.

Eng. - The article is dedicated to the issues of assessing the reliability of cash flow statement indicators. It covers the relevance of studying this topic, the level of prior research, and a review of related literature. The article also presents the research methodology applied, research findings and their scientific discussion, as well as evidence supporting the reliability of cash flow statement indicators. Additionally, it examines the main objects of cash flow statement auditing, the movement of cash in operational activities, financial ratios analyzed during cash flow audits, transactions studied in cash audits, and the procedures performed during the audit of these statements. Finally, the article summarizes conclusions drawn from the research results.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ moliyaviy hisobot, pul oqimlari, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, auditning xalqaro standartlari, auditorlik xulosasi.

❖ financial reporting, cash flows, national accounting standards, international auditing standards, auditor's report.

Kirish.

O'zbekiston moliyaviy hisobot auditi amaliyotida yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun hamda auditning xalqaro standartlari qo'llanilayotganligiga qaramasdan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobot shakllari, jumladan, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditida o'z

echimini kutayotgan ilmiy-uslubiy va amaliy masalalar mavjud. Bunday masalalar tarkibiga firibgarlik va xatolarni moliyaviy hisobotga ta'sirini baholash, moliyaviy hisobot shakllarini amaldagi me'yoriy hujjatlar va buxgalteriya standartlariga muvofiq tayyorlash hamda hisobotdagi ko'rsatkichlarni birlamchi hisob ma'lumotlariga mosligini aniqlash, moliyaviy

hisobot auditida risk va muhimlik darajasini to'g'ri baholash hamda moliyaviy hisobot audit natijalarini hujjatlarda umumlashtirish va baholash kabi dolzarb va o'rganilishi zarur bo'lgan jihatlar mavjuddir.

Ayniqsa, Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 4-noyabrdagi "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i, 2024-yil 5-dekabrdagi 199-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" nomli 9-son BHMS, 2024-yil 6-avgustdagi "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" nomli 1-son buxgalteriya hisobining milliy standarti hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi hamda ularni qonun hujjatlari me'yorlari asosida tayyorlanganligining auditini kompleks tarzda o'rganilmaganligi bu borada chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston amaliyotida moliyaviy hisobot shakllari, xususan, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditini tashkil etishning amaliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish, audit jarayonlarida ilg'or xorij tajribasi va dasturiy vositalardan foydalanish, xalqaro standartlar asosida tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash kabi masalalar yaxlit tarzda batafsil o'rganilmaganligi, ayniqsa, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligini baholashga oid chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Tahlillar natijasida, xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot shakllari auditini tashkil etish va amalga oshirish masalasida bugunga qadar asosan xorijlik iqtisodchilar tadqiqotlar olib borishganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etishning nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish hamda uni

takomillashtirish bo'yicha ko'plab xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ular jumlasiga A.Arens., Dj.Lobbek, R.Adams, R.Dodj, D.R.Karmaykl va M.Benislarni kiritish mumkin [1, 2, 3, 4].

Mavzuning ayrim jihatlarini MDH mamlakatlarining iqtisodchi-olimlaridan Н.П.Барышников, Н.Т.Белуха С.М.Бычкова, П.И.Камышанов, Ж.А.Кеворкова, В.П. Суйц va A.Д.Шереметлар tomonidan o'rganilgan [5, 6, 7, 8, 9, 10, 11].

O'zbekiston iqtisodchi olimlari tomonidan esa mazkur masalalar yaratilgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalarda, shuningdek, e'lon qilingan ilmiy maqola va tezislarda faqat xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot auditini tashkil etishning nazariy jihatlarini o'rganilgan. Masalan, R.D.Dusmuratov, A.X.Sattorov, I.I.Meliev va N.Sh.Xajimuratovlarning asarlarida xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish hamda o'tkazishning ayrim jihatlarini o'rganilgan [12, 13, 14, 15].

Xususan, iqtisodchi K.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditining xususiyatlari o'rganilgan [16].

Iqtisodchi T.H.Варламовaning fikricha, moliyaviy hisobot to'g'risida auditorlik tekshiruvini 3 ta bosqichdan iborat: tayyorgarlik bosqichi, auditorlik tekshiruvini o'tkazish bosqichi va yakuniy bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi [17].

Iqtisodchi olim N.Q.Rizayevning ta'kidlashicha, O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni "...amalda ijrosini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- O'zbekistondagi buxgalteriya hisobi va audit sohasida professional tashkilotlarning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Kengashiga hamda Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasiga a'zo bo'lish, ularga a'zolik

badallarini to'lash, davlat darjasida hamkorlik olib borish, delegatsiyalar aloqalarni o'rnatish, O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilishiga erishish;

- mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa korxonalarning ixtiyoriylik asosida o'z tashabbuslari bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotga o'tishlariga erishish.

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga to'liq javob beradigan O'zbekiston buxgalteriya hisobi milliy standartlarini qayta tahrirda ishlab chiqish lozim [18].

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot shakllari, jumladan, "foyda va zararlar hamda boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot" auditining uslubiy masalalari yaxlit tadqiq etilmaganligi hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda o'quv adabiyotlarida xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot auditi borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borish dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida nazariy va amaliy o'rganish, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil, omilli tahlil qilish usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditining maqsad va vazifalarini aniqlashtirish, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ishonchliligini samarali auditorlik usul va amallarni qo'llash, hisobotning investitsion, operatsion va moliyaviy faoliyat bo'yicha ko'rsatkichlari ishonchliligini buxgalteriya schyotlari va birlamchi hisob hujjatlari ma'lumotlari orqali aniqlash, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ishonchliligini tahliliy amallarni qo'llash orqali aniqlash bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, "Pul oqimlari to'g'risida"gi hisobot boshqa hisobot shakllari bilan birlalikda korxonaning eng likvid aktivlaridagi o'zgarishlarni, uning moliyaviy tuzilmasini (jumladan, likvidlik va to'lovga layoqatlilikini), korxonalarning qiyoslama baholash maqsadida kelgusi pul oqimlarining joriy qiymatini modellashtirish imkonini beradigan doimiy ravishda o'zgaruvchi tashqi va ichki omillar sharoitida pul oqimlari harakatini tartibga solish layoqatini baholashga xizmat qiluvchi axborot taqdim etilishini ta'minlaydi.

Buxgalterlarning xalqaro federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, "pul oqimlari to'g'risida"gi hisobotning asosiy maqsadi - kompaniyaning investorlari va kreditorlarini pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan yetarli darajada ta'minlashdan iboratdir.

"Pul oqimlari to'g'risida"gi hisobotni tuzish va taqdim etish shakli O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Buxgalteriya hisobi to'g'risida Qonuni asosida ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" deb nomlanuvchi 9-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) asosida olib boriladi. Korxonalar amaliyotida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda va uning ko'rsatkichlariga alohida e'tibor berilayotganligi yo'q. Buning asosiy sabablaridan biri hisobot shaklini mukammal darajada shakllanmaganligi bilan ham bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan "Pul mablag'lari harakati to'g'risida"gi hisobot shaklining tasniflanishi bilan respublikamizda amal qilib kelayotgan "Pul oqimi to'g'risida"gi hisobot shaklining tasniflanishi o'rtasida ma'lum farqlanishlar mavjud. Bunday farqlanishlardan biri respublikamizda qo'llanilayotgan hisobot shaklida "Soliqqa tortish"lar alohida bo'linma

sifatida tasniflangan. Vaholanki, rivojlangan mamlakatlarda amal qilinayotgan hisobotda "Solliqqa tortish"lar birinchi bo'linmada, ya'ni xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining harakati deb nomlangan bo'linmada aks ettiriladi.

Auditning dastlabki bosqichida avvalo, hisobotdagi tashkilotning to'liq nomi, faoliyat turi, tashkiliy-huquqiy shakli, elektron pochta manzili, soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR), o'lchov birligi hisobot taqdim qilingan sana kabi ma'lumotlarni to'liqligi, to'g'riligi, haqiqiyli va BHMS qoidalariga muvofiq rasmiylashtirilganligi, hisobotni soliq inspeksiyasi va hududiy statistika bo'linmalariga hisobot yilidan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmasdan taqdim etilganligi hamda hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartib(imzo va muhrlar yoki elektron raqamli imzo)da tasdiqlanganligi o'rganiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditida tekshiruv buyurtmachisining operatsion faoliyatni amalga oshirish maqsadlarida banklardagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari, jamg'arma depozit hisobvaraqlari, muddatli depozit hisobvaraqlari, ssuda hisobvaraqlari hamda boshqa depozit hisobvaraqlari schyotlarining ma'lumotlari o'rganiladi. Shuningdek, auditor tekshiruv buyurtmachisining operatsion faoliyatida bankda ochilgan yuqoridagi

schyotlarda quyidagi shakllarda hisob-kitoblar amalga oshirilganligi o'rganiladi:

- 1) to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar;
- 2) akkreditivlar bilan hisob-kitoblar;
- 3) inkasso bo'yicha hisob-kitoblar;
- 4) cheklar bilan hisob-kitoblar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar (bundan banklar va byudjet tashkilotlari mustasno) pul oqimlari to'g'risidagi axborotni tayyorlash va ochib berish jarayonida mazkur standart talablarini bajarishlari kerak. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish maqsadi bo'lib, pul oqimlarining hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan holati va hisobot davri mobaynida uning tarkibidagi o'zgartirishlar haqidagi axborotni ochib berish hisoblanadi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatining o'z pul mablag'lariga ma'lum hisobot davri ichida ta'sirini shu davr ichida pul mablag'larining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni beradi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda hisobot davri davomidagi pul oqimlari aks ettiriladi va ular quyidagi shakllarga tavsiflanadi:

- operatsion faoliyat;
- investitsion faoliyat;
- moliyaviy faoliyat.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditining asosiy obyektlarini quyidagi jadval shaklida tasvirlash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditining asosiy obyektlari

Bo'limlar	O'rganiladigan ko'rsatkichlar va hujjatlar
Audit maqsadi	Hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini baholash
Operatsion faoliyatdagi pul oqimlari	- Royalti, badallar, vositachilik haqi va boshqa tushumlar; - To'varlar va xizmatlar uchun to'lovlar; - Xodimlarga va ularning nomidan to'lovlar; - Sug'urta mukofotlari va to'lovlari; - Solliqlar bo'yicha to'lovlar (investitsiya va moliyaga taalluqli bo'lmagan); - Savdo/dilerlik shartnomalari bo'yicha tushum va to'lovlar
Investitsion faoliyatdagi pul oqimlari	- Asosiy vositalar, nomoddiy va uzoq muddatli aktivlarni sotib olish va sotishdan tushumlar/to'lovlar; - Boshqa subyektlarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini sotib olish/sotish;

	- Bo'naklar va kreditlar berish va qaytarilishi; - Fyuchers, forward, opsiya va svop bitimlari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlar (dilerlik/savdo maqsadlari bundan mustasno)
Moliyaviy faoliyatdagi pul oqimlari	- Aksiyalar yoki boshqa moliyaviy vositalarni chiqarishdan tushumlar; - Aksiyadorlarga to'lovlar; - Obligatsiyalar, ssudalar va zayomlardan tushumlar va to'lovlar; - Moliyaviy lizing majburiyatlari bo'yicha to'lovlar
O'rganiladigan bank va buxgalteriya schyotlari hamda hisoblashish turlari	Talab qilib olinguncha depozit schyotlari, jamg'arma depozitlari, muddatli depozitlar, ssuda schyotlari, valyuta schyotlari, to'lov topshiriqlari, akkreditivlar, inkasso, cheklar, 5110, 5010, 5210, 5220, 9510-9590, 6610, 4840, 9610-9690, 8710, 0310 va boshqa hisoblar
O'rganiladigan birlamchi va yig'ma buxgalteriya hujjatlari	Fyuchers, forward, opsiya, svop shartnomalari; Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga oid qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, inventar kartochkalari (AV1-AV9); Nomoddiy aktivlarga oid buyruq va bayonnomalar (NMA 1-NMA-9) 0410-0490 va 0110-0190 buxgalteriya schyotlari, memorial order, to'lov topshiriqlari, to'lov talabnomalari, inkasso, akkreditiv arizalari, bank chek va hisobvaraqlar ko'chirmalari, inventarizatsiya dalolatnomalari, analitik hisob kartochkalari, bank to'lov hujjatlari, pul oqimlari hisobotlari

Tekshiruv buyurtmachisining operatsion faoliyatida naqdsiz shaklda bank schyotlari orqali amalga oshirilgan muomalalari auditi jarayonlarida hisobotdagi ma'lumotlar memorial order, to'lov topshiriqnomasi, to'lov

talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, tijorat bankining hisob-kitob cheki kabi birlamchi hujjatlar ma'lumotlariga muvofiqligi o'rganiladi (2-jadval).

2-jadval
Operatsion faoliyatda pul mablag'larining harakati

Pul mablag'larining kirimi	Pul mablag'larining chiqimi
Mahsulot(ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum	Tovar va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar
Royaltlardan (patentni, mualliflik huquqi qo'llanilganligi va boshqalar uchun), har-xil xarakterdagi mukofotlardan, foiz daromadi, komissiya yig'imlar va boshqa daromadlardan tushum	Korxona xodimlariga pul to'lovlari, operatsion xarajatlar
Tovar moddiy zahiralarni ko'payishi	Tovar moddiy zaxiralarning qisqarishi
Savdo va vositachilik maqsadlarida tuziladigan bitimlar bo'yicha pullarning kelib tushishi	To'langan foizlar
Joriy majburiyatlarining ko'payishi, jumladan investitsion va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromad solig'i bo'yicha.	Joriy majburiyatlarning kamayishi, jumladan investitsion va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromad solig'i bo'yicha xarajatlar
Pulsiz xarajatlar: - asosiy mablag'larning va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, tabiiy resurslarning kamayishi; - qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha chegirmalarning amortizatsiyasi	Pulsiz muomalalar: qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha ustamaning amortizatsiyasi

Bizningcha, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditi jarayonida eng samarali tahlil usuli hisoblanadi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot quyidagi bosqichlarda tahlil etilishi

maqsadga muvofiq:

- 1 - bosqich. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning vertikal tahlili;
- 2 - bosqich. Pul mablag'lari harakati

to'g'risidagi hisobotning gorizontall tahlili;

3 - bosqich. Pul mablag'lari harakatining koeffitsientli tahlili;

4 - bosqich. Pul oqimining moliyaviy holatga ta'sirini baholash.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning vertikal tahlili ularning tuzilishiga baho berish imkonini berib, bunda har bir faoliyat turlari bo'yicha sof pul oqimi tarkibida pul oqimi muayyan turining ulushi yoki barcha faoliyat turlari bo'yicha jami sof pul oqimi tarkibida faoliyat turlari bo'yicha pul

mablag'larining ulushi to'g'risida xulosa shakllantirish imkonini beradi. Odatda operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimi korxona pul oqimlari tarkibida yuqori ulushni tashkil etadi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning gorizontall tahlili ularning dinamik o'zgarishiga baho berish imkonini beradi. Mazkur tahlil jarayonida quyidagi koeffitsientlardan foydalanish samarali hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditida o'rganiladigan moliyaviy koeffitsientlar

№	Koeffitsientlar	Hisoblash usuli	Izoh
1	Biver koeffitsienti	$KBiver = (SF+A) / (UMMo'rt + JMo'rt)$	Koeffitsientning me'yori 0,4-0,45
2	Joriy majburiyatlarni foyda hisobiga qoplash koeffitsienti	$Kjmf = (SF+A) / (UMMo'rt + JMo'rt)$	-
3	Sof pul oqimining etariligi koeffitsienti	$Kspoye = SPO / (MBT + MAAqo' + D)$	-
4	Pul oqimining samaradorligi koeffitsienti	$Kpos = SPO / PMCH$	-
5	Sof pul oqimining rentabelligi	$Kren = (SF / SPO) * 100$	Koeffitsientning me'yori >0,05
6	Mutlaq to'lov qobiliyati koeffitsienti	$Kmtq = (PM + QMI) / JM$	Koeffitsientning me'yori 0,2-0,5

Izoh: SF – sof foyda; A – amortizatsiya; UMMo'rt – uzoq muddatli majburiyatlarning o'rtacha summasi; JMo'rt – joriy majburiyatlarning o'rtacha summasi; SPO – sof pul oqimi; MBT – majburiyatlar bo'yicha to'lovlar; MAAqo' – moddiy aylanma aktivlar qoldig'ining o'sishi; D – hisobot davrida to'langan dividendlar; SPO – sof pul oqimi; PMCH – pul mablag'lari chiqimi; PM – pul mablag'lari; QMI – qisqa muddatli investisiyalar.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditida tahlil usulini qo'llash orqali pul mablag'larining yetishmovchiligi likvidlilik va to'lov qobiliyatiga ta'sirini baholash imkoniyati yuzaga kelardi. Bu esa tekshirilayotgan subyektda muddati o'tgan kreditorlik majburiyatlarining holatini baholashni, shuningdek, pul mablag'lari va aktivlar rentabelligining pasayishini o'rganish imkonini beradi.

Auditor yuqorida ko'rsatib o'tilgan ko'rsatkichlarni aniqlash orqali operatsion faoliyatning sof pul oqimi asosida investitsion va moliyaviy faoliyatning moliyalashtirilishini tekshiruv buyurtmachisi pul mablag'larining samarali boshqarilayotganligini tasdiqlaydi. Tekshiruv buyurtmachisining investitsion

faoliyat bo'yicha pul oqimlari auditida quyidagi pul oqimlari bo'yicha muomalalar o'rganiladi:

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish uchun qilingan to'lovlar. Bu to'lovlarga, shuningdek, tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilgan va kapitallashtiriladigan xarajatlar kiradi;

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan kelgan pul tushumlari;

- boshqa tadbirkorlik subyektlarining ulushli yoki qarz instrumentlarini sotib olish hamda qo'shma korxonalarda ulushga ega bo'lish uchun amalga oshirilgan to'lovlar (pul mablag'lari ekvivalentlari bo'lib hisoblanadigan yoki vositachilik va oldi-sotdi

uchun mo'ljallangan instrumentlar uchun qilingan to'lovlardan tashqari);

- boshqa tadbirkorlik subyektlarining ulushli yoki qarz instrumentlarini va qo'shma korxonalardagi ulushlarni sotishdan kelgan pul tushumlari (pul mablag'lari ekvivalentlari bo'lib hisoblanadigan yoki vositachilik va oldi-sotdi uchun mo'ljallangan instrumentlar bo'yicha kelgan tushumlardan tashqari);

- boshqa tomonlarga berilgan bo'naklar va qarzlar (moliyaviy institutlar tomonidan berilgan bo'naklar va qarzlardan tashqari);

- boshqa tomonlarga berilgan bo'naklar va qarzlarining qaytarilishi natijasidagi pul tushumlari (moliyaviy institutlar tomonidan berilgan bo'naklar va qarzlardan tashqari);

- fyuchers, forward, opsiyon va svop shartnomalari bo'yicha pul to'lovlari;

- fyuchers, forward, opsiyon va svop shartnomalari bo'yicha pul tushumlari, bunda bu shartnomalar vositachilik yoki oldi-sotdi uchun mo'ljallangan holatlar, yoki to'lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanadigan holatlar mustasno.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning investitsion faoliyat bo'yicha ko'rsatkichlarini o'rganishda quyidagi pul oqimlariga doir muomalalarni birlamchi hujjatlar ma'lumotlariga muvofiqligi va ularni buxgalteriya qoidalariga asosan moliyaviy hisobotda umumlashtirilganligi baholanishi zarur (4-jadval).

4-jadval

Pul mablag'lari auditida o'rganiladigan muomalalar

Pul mablag'lari kirimi	Pul mablag'lari chiqimi
Yer, binolar, uskunalari, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushumlarga oid muomalalar	Yerni, binolarni, uskunalarni, nomoddiy (masalan, patentlarni) va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish to'lovlari, kapitallashtirish bilan bog'liq tajribakonstruktorlik ishlariga to'lovlar, hamda pudratchilarni jalb qilmasdan korxona tomonidan yaratiladigan er, bino, uskunalariga to'lovlar bo'yicha muomalalar
Boshqa tashkilotlarning aksiyalarini yoki boshqa qarz majburiyatlarini chiqib ketishidan/sotilishidan kirimlar (pul mablag'larining ekvivalentlari deb hisoblangan yoki sotuv uchun saqlanadigan majburiyatlar uchun bo'ladigan to'lovlardan tashqari) bo'yicha muomalalar	Boshqa korxonalarning aksiyalariga yoki qarz majburiyatlariga qo'yilmalar. Kapitalda ishtirok etish ulushiga badallar (pul mablag'larining ekvivalentlari hisoblangan yoki sotish uchun saqlanayotgan to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovlardan tashqari)ga oid muomalalar
Boshqa korxonalarga berilgan bo'naklarning qaytarilishi va qarzlarining to'lanishidan kirimlar (operatsion faoliyat bo'lgan foiz daromadlaridan tashqari) bo'yicha muomalalar	Boshqa korxonalarga berilgan bo'nak to'lovlari va qarzlar bo'yicha muomalalar

Yuqoridagi 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, auditor hisobotning investitsion faoliyat bo'yicha pul oqimlarini o'rganishda, tekshiruv buyurtmachisining kelgusi faoliyati bo'yicha daromad va pul oqimlari miqdorini belgilovchi resurslar bo'yicha qilingan xarajatlar darajasini ko'rsatuvchi muomalalar bo'yicha ko'rsatkichlar ishonchligini o'rganadi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning investitsion faoliyat bo'yicha

ko'rsatkichlarini ishonchligini o'rganishda quyidagi shartnoma(bitim)lar o'rganiladi:

Fyuchers shartnomasi - bu ma'lum miqdorda moliyaviy instrumentlarni yoki belgilangan miqdordagi tovarni erkin savdo birjasida kelishilgan narxda oldi - sotdi to'g'risidagi shartnoma;

Forward shartnomasi - bu tovar yoki moliyaviy instrumentlarni kelajakda jo'natish va hisob - kitob qilish bo'yicha oldi - sotdi to'g'risidagi bitim;

Options shartnomasi - bu ma'lum miqdordagi moliyaviy instrumentlar yoki tovarlarni kelishilgan muddat ichida belgilangan miqdorda mukofot to'lash evaziga qayd etilgan narxda sotib olish yoki sotish huquqi. Shuningdek, pul oqimlari to'g'risida hisobotning "Asosiy vositalarni sotib olish va sotish" (o6o-satr) moddasida korxonalar "Chiqim" ustunida mol etkazib beruvchilarga to'langan asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun pul mablag'lari summasini, "Kirim" ustunida esa - asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablag'lar summalarining to'g'ri va ishonchliligi o'rganiladi.

Auditor tomonidan pul oqimlari to'g'risida hisobotning "Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish" (o7o-satr) moddasida korxonalar "Chiqim" ustunida nomoddiy aktivlarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchiga to'langan pul mablag'lari summasini, "Kirim" ustunida esa - nomoddiy aktivlarni sotganlik uchun kelib tushgan mablag'lar summolari birlamchi hujjatlar ma'lumotlari bilan solishtirilgan holda, ularni hisobotda 1, 5, 6, 19 va 21 son BHMS me'yorlari asosida umumlashtirilganligi o'rganiladi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari 2024-yil 8-oktabrdagi "moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 181-son buyrug'iga muvofiq pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shaklining 110-170 satrlarda aks ettirilgan bo'lib, auditor ushbu jarayonda olingan va to'langan foizlar, olingan va to'langan dividendlar, aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari, xususiy aksiyalarni sotib olish va sotish bo'yicha pul to'lovlari hamda tushumlari, uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari, moliyaviy ijara bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari hamda moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlarini o'z ichiga olgan ko'rsatkichlarning ishonchliligini baholaydi.

Shuningdek, auditor hisobotning 190-230 satrlarida aks ettirilgan soliqqa tortish bo'yicha ko'rsatkichlarni o'rganish orqali to'langan foyda solig'i, to'langan boshqa soliqlar, jami to'langan soliqlar, jami moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi, chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi, yil boshidagi pul mablag'lari va yil oxiridagi pul mablag'lari bo'yicha ko'rsatkichlarni birlamchi hujjatlar ma'lumotlariga mosligi hamda hisobot ko'rsatkichlarini amaldagi BHMS me'yorlariga muvofiqligi o'rganiladi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar auditi jarayonida auditor tomonidan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning quyidagi xarajat moddalari ishonchliligi o'rganiladi:

- banklar va boshqa tashkilotlardan olingan kreditlar va qarzlar bo'yicha foizlar;
- moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizlar;
- manfiy kurs farqlari va chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha zararlar;
- qimmatli qog'ozlar, sho'ba korxonalarga sarf qilingan mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar;
- o'z qimmatli qog'ozlaringizni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

O'z navbatida moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar auditida moliyaviy faoliyatning quyidagi daromadlari bo'yicha ko'rsatkichlar ishonchliligi baholanadi:

- royaltidan olingan daromadlar;
- dividendlar ko'rinishidagi daromadlar;
- foizlar ko'rinishidagi daromadlar;
- kurs farqlaridan olingan daromadlar;
- uzoq muddatli ijaradan olinadigandan daromadlar;
- qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan daromadlar;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromad va xarajatlar oy oxirida 9900 -"Yakuniy moliyaviy

natija" schyotiga o'tkazilgan bo'lib, Auditor mazkur operatsiyalarning to'g'riligini tegishli hisob hujjatlariga asosan tekshiradi. Shunday qilib turli mulkdagi korxonalarning daromadlari ma'lum ketma-ketlikda audit qilinadi va uning natijalari auditorlik hisoboti hamda xulosasida o'z aksini topadi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning 250-290 satrlaridagi chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot bo'limi ko'rsatkichlari ishonchliligini o'rganishda chet el valyutasi mablag'lari bo'yicha yil boshiga qoldiq, kelib tushgan valyuta mablag'lari, sotishdan olingan tushum, konvertatsiya qilingan chet el valyutasi mablag'lari, moliyaviy faoliyat bo'yicha chet el valyutasi mablag'lari, boshqa manbalar, sarflangan valyuta mablag'lari, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lovlar, moliyaviy faoliyat bo'yicha to'lovlar, boshqa maqsadlar uchun chet el valyutasi mablag'lari, chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi hamda chet el valyutasidagi yil oxiridagi qoldiq ko'rsatkichlarini birlamchi hisob hujjatlariga muvofiqligi hamda ularni hisobotda BHMS me'yorlariga muvofiq shakllantirilganligi o'rganiladi. Shuningdek, audit jarayonida tekshiruv buyurtmachisining banklarda ochilgan valyuta schyotlari mablag'lari ichki valyuta operatsiyalari, joriy xalqaro operatsiyalar, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda kapital harakati operatsiyalar va xizmat safari xarajatlari maqsadlarida ochilganligi hamda shu maqsadlar uchun foydalanilganligi o'rganiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning chet el valyutasidagi pul mablag'lari bo'limi ko'rsatkichlari buxgalteriya hisobining 5210-"Mamlakat ichida valyuta schyotlari", 5220-"Chet eldagi valyuta schyotlari", 5210-"Mamlakat ichida valyuta schyotlari" va 5220-"Chet eldagi valyuta schyotlari" schyotlaridagi kassadagi valyuta mablag'lari, bankdagi depozit va ssuda schyotlari, akkreditivlar, valyuta ssuda qarzlari, xorijiy valyutadagi

debitor va kreditor qarzlari, tuzilgan shartnomalar bo'yicha bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish, sanasiga import qilingan tovar-material qiymatliklar va boshqa aktivlarning kirimi, bojxona to'lovlarining amalga oshirilishi, xorijiy valyuta ko'rinishidagi pulli hujjatlar, xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'rsatkichlar o'rganiladi. Yuqorida sanab o'tilgan muomalalar bo'yicha ko'rsatkichlar tekshiruv buyurtmachisining valyuta schyotidan ko'chirma, 5210-"Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari"ni kredit oboroti bo'yicha jurnal order va valyuta schyoti bo'yicha analitik hisob kartochkalar, bank to'lov hujjatlari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari bilan solishtirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar.

Xo'jalik subyektlarida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot audit borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish va o'tkazish, dalil to'plash, tahliliy amallarni bajarish, auditda firibgarlik va xatoni aniqlash jarayonlarida auditorlik tashkilotining ichki standartlari hamda uslubiy qo'llanmalaridan foydalanish orqali ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, auditorlik tashkilotlari faoliyatida yangi ta'lim xizmatlari yoki ilmiy tadqiqot xizmatlarini joriy etish, tekshiruvga sarflanadigan vaqt va xarajatlarni kamaytirish, tekshiruvlarning sifati va natijadorligini oshirishga erishish mumkin.

Fikrimizcha, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditini samarali tashkil etishning eng oqilona yo'li har bir auditorlik tashkiloti tomonidan mazkur jarayon bo'yicha auditorlik ichki standartlarini ishlab chiqish va uni audit jarayonlarida qo'llash hisoblanadi. Auditorlik ishchi hujjatlarini shakllantirishda ichki standartlarni qo'llanilishi audit jarayonlarini oldindan belgilangan namunaviy shakldagi hujjatlarda aks ettirish, audit tekshiruvini

hujjatlashtirishda grammatik va texnik xatolarni kamaytirish, audit jarayonlarini tizimli va o'zaro bog'liq tartibda hujjatlashtirish hamda auditorlik xulosasini auditor tomonidan to'plangan dalillar yoki tuzilgan birlamchi hujjatlar asosida shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Pul oqimlari to'g'risida ishonchli auditorlik dalillarni tashqi manbalardan yoki

uchinchi shaxslardan so'rov orqali tashqi tasdiq shaklida olish maqsadga muvofiq. Audit jarayonida tekshiruv buyurtmachisi faoliyat uzluksizligini baholash uchun uzluksizlikni tasdiqlovchi dalillarni to'plash tartibini aniqlashtirish va mazkur jarayonda tuziladigan auditorlik ish hujjatlarining mazmuni hamda shaklini aniqlashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аренс А., Лоббек Дж. Аудит. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. -М.: Финансы и статистика, 2013. -560 с.
2. Адамс Р. Основы аудита. Пер. с англ./под ред. Я.В. Соколова. - М.: ЮНИТИ, 2015.-398с.
3. Додж Р. Краткое руководства по стандартам и нормам аудита. Пер. с англ.: предисловие.
4. Кармайкл Д.Р., Бенис М. Стандарты и нормы аудита. Пер. с англ. -М.: Аудит. ЮНИТИ, 1995.-527с.
5. Барышников Н.П. Организация и методика проведения общего аудита. 4-е изд. перер. и доп. -М.: Финансы, 1998.-528с.
6. Белуха Н.Т. Аудит. Учебник «Знания», КОО, 2000.-769 с.
7. Бычкова С.М. Аудиторская деятельность. Теория и практика. -СПБ.: Лань, 2000.-320с.
8. С.А.Стукова.- М.: Финансы и статистика, ЮНИТИ, 1992. -240с.
9. Камышанов П.И. Практическое пособие по аудиту. -М.: ИНФРА-М. 1996.-522 с.
10. Ж.А.Кеворкова. Международные стандарты аудита. -М.: Юрайт, 2014.-458 с.
11. Суйц В.П., Шеремет А.Д. Аудит. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2009. -456 с.
12. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: monografiya. - T.: Moliya nashriyoti, 2007. - 276 b.
13. Sattorov A.X. Auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. - T.: 2024. - 72 b.
14. Meliyev I.I. Auditorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. - T.: 2024. - 78 b.
15. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. - Toshkent: Impress media, 2021. - 236 b.
16. K.R.Nazarova. Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot auditining xususiyatlari. "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali. 2024-yil, sentabr-oktabr. № 4-son.
17. Варламова Е.Н. Этапы профедения аудиторской проверки: особенности аудита организаций оптовой торговли. // Международный бухгалтерский учет, № 4 (202)-2012. 56-бем.
18. N.Rizayev, S.Habijonov. O'zbekistonda MHXS asosida buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini takomillashtirish. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 8 son. 20.05.2022.